

Gulistn davlat universiteti Itimoiy fanlar kafedrası

*o'qituvchisi **Abdualilov Bekzod**,*

“Ijtimoiy ish”yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ortiqboyeva Diyora

Annotatsiya: *Maqolada davlatimiz siyosatida oilaga berilayotgan e'tibor, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va kelajak avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati hamda bu boradagi davlatimiz erishayotgan yutuqlar va muammolar haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, barkamol avlod, tarbiya, mas'uliyat, farzand, axloq*

Abstract: *The article discusses the attention paid to the family in the politics of our country, its role in the development of society and its importance in educating the younger generation, as well as the achievements and problems of our country in this regard.*

Keywords: *family, society, perfect generation, education, responsibility, child, morality*

Аннотация: *В статье обсуждается внимание, уделяемое семье в политике нашей страны, ее роль в развитии общества и ее значение в воспитании подрастающего поколения, а также достижения и проблемы нашей страны в этом отношении.*

Ключевые слова: *семья, общество, совершенное поколение, образование, ответственность, ребенок, мораль*

Kirish. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va

yashovchanligida ko'rinadi. Oila hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Oila barcha madaniyatlarda mavjud bo'lgan asosiy ijtimoiy institutdir. Bu odatda ota-onalar va ularning farzandlaridan iborat bo'lib, oila tuzilmalari turli jamiyatlarda turlicha bo'lsa-da, oilada birgalikda hayot kechiradilar. Oilalar o'z a'zolariga hissiy yordam, ijtimoiylashuv va amaliy yordam beradi. Ular odamlarning o'ziga xosligi, e'tiqodlari va xatti-harakatlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Respublikamizda 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra oilalar soni 9 424 787 taga yetgan[1]. Ushbu oilalarning tinch totuvligi, farovon hayot kechirayotgani ularning farzandlarining yutuqlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Kishilik jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi. Oila — jamiyat hayotining kichik bir bo'g'ini hisoblanadi. Oila esa har tomonlama sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish uchun ma'sul bo'lgan nihoyatda muhim tarbiya o'chog'idir. Oiladagi bola tarbiyasi ikkiyoqlama ahamiyat kasb etadi, ota-onalar farzandlariga axloq-odob, ruhiyat va ma'naviyatga oid bilimlardan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasliklari, balki o'zlari ham tarbiyaning o'ziga xos sir-sinoatlari, xususiyatlari, uning mazmun-mohiyati va ma'nosiga oid yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari kerak bo'ladi.

O'z farzandlariga oqilona tarbiya bera olgan ota-onalar, umrlarini rohat va farog'atda o'tkazadilar, bolalaridan hamisha olijanoblik, mehribonlik, yaxshilik ko'radilar, dillari aslo jarohat azobini sezmaydi, o'kinish hissiga duchor bo'lmaydilar. Oilaning asosiy tayanchi bo'lgan ota, hayotning barcha mashaqqatlaridan totib ko'radi, o'zining bukilmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshliligi bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi.

Ushbu so'zlardan kelib chiqib, O'zbek oilasi a'zolarining barchasini savodxon, ma'lumotli deb atasak, xato qilmagan bo'lamiz, chunki, shu imkoniyatlar ta'sirida farzandlar bilimli, fikr-mulohazali, topqir, ishbilarmon, aql-zakovatli bo'lib voyaga yetmoqdalar.

Adabiyotlar tahlili. Har bir shaxs yetuk inson bo'lib yetishishida ota-onaning o'rni, ayniqsa ularning berayotgan tarbiyasining o'rni katta. Bu masalada

mamlakatimizda ham ko'plab ishlar olib borilmoqda. Xususan "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarni faolligini oshirish bo'yicha chora –tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori PQ-401, 21.12.2023 yil[1], "Oila va xotin qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni jadallashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident Farmoni 07.03.2022 yildagi PF-87-son[2] kabi islohotlar olib borilmoqda. Nafaqat O'zbekiston hududida balki xalqaro jamiyatda ham ko'plab ishlar olib borilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi 1993-yil 20-sentabrda 15-mayni Xalqaro oila kuni sifatida nishonlanishi to'g'risida qaror qabul qilinishidan ko'zlangan maqsad ham oilalarga qaratilgan e'tiborning yaqqol namunasi bo'la oladi. Shuningdek, ushbu maqolada Vasila Karimovaning "Oila-psixologiyasi" kitobidan, turli xil maqolalar, jurnallardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ota — oilaning posponidir. Zero, oilaning har bir ko'z ilg'amas nuqtalarini ilg'ay olish, oila a'zolariga faqat to'g'ri, haq yo'lni ko'rsatib turishdek insoniy mas'uliyat otaning zimmasida turadi. Ota o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida, eng muhimi amaliy faoliyatida to'g'ri yashash va halollik, samimiyluk va xolislik yuzasidan namuna ko'rsatadi. Ota o'z farzandiga go'zal odobdan ko'ra yaxshiroq narsa bermaydi. "Farzandingga odob bergin, chunki sen farzandga odob berish va uni ta'lim-tarbiyali qilishga mas'ulсан. Bu mas'ullik esa farzandning kun kelib senga yaxshilik qilishga mas'uldir"[1] – deyiladi nodir kitoblarda..

Murg'ak tasavvurli bola ilk tarbiyani oilada oladi. Bola tarbiyasining ilk saboqlari haqida atoqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida quyidagi fikrlarini bayon etgan edi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, zehnimizni ravshanlashtirmoq lozim"[2].

Oilada kattalarning obro'si qo'rqitish asosida emas, balki samimiyluk, o'zaro hurmat-ehtirom asosiga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Oila a'zolarining ahilligi, o'zaro hamjihatligi, kiyinish madaniyati, mehnat faoliyati, o'zga kishilar to'g'risidagi suhbatlari va ularning boshqa sifat hamda fazilatlarini bolaning tasavvuriga yangi timsollarni olib kiradi. Oila tarbiyasi bolaning kelajakda kim

bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi, bola avvalo oilada jamiyatning qiyofasini quradi, bo'lajak fuqaroning huquq va burchlari, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari aynan shu joyda shakllanadi, shu holda ham jismonan va ruhiy kamol topib boradi. Bola uchun oiladagi sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit, azaliy qadriyatlar, an'analar, ijtimoiy-hayotiy tajribalar, ko'nikma va malakalar manbaidir. Bu oilaviy tarbiya jarayonida rivojlanib boradi, tarbiyaning mazmuni kishini hayotga tayyorlashdan iborat bo'lib, u kishilarning ijtimoiy munosabatlariga bog'liq. Kishi shu munosabatlarga asosan hayotga biron-bir tarzda qaraydigan bo'ladi, tafakkuri orqali olamni angelaydi va o'zining unga nisbatan munosabatini shakllantiradi, muayyan axloq mezonlari ruhida tarbiya topadi, chunki oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir etadi. Ruhshunoslarning o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra inson fe'l-atvorining 80 foizi u 5 yoshgacha bo'lgan davrda shakllanib ulgurur ekan. Demakki, ushbu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori, oiladagi muhit sog'lom ekani farzand kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lib, oila a'zolarining turmush tarzi ko'p hollarda farzandlarning ruhiy kayfiyati, tasavvuri va hissiyotlarini belgilab beradi. Demak oila sog'lom, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishda jamiyat oldida mas'uldir. Oilada tarbiya topgan har bir inson har jihatdan umuminsoniy axloqiy, ilmiy, e'tiqod va boshqa sohalarda kamolatga yetgan hislatlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim, kamolot sari intilgan kishi asta-sekin olamni, o'zligini taniy boshlaydi.

Komillik insonning adolatli bo'lishi, haqiqat va yaxshilikka intilishi, vijdonan pok, o'z xatolarini anglab, ulardan xalos bo'lishga harakat qilishi demakdir, ma'naviyatni boyitish, iymon-e'tiqodli, aql-zakovatli bo'lish kishilarni g'aflatdan uyg'otadi, barcha ezgu tilaklarini ro'yobga chiqaradi.

Tarbiya dinimizda ham vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy

narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo'lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. «Robbil a'lamiyn» – butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya'ni nazorati, kuzatuvini lahza to'xtatsa, olamlar izdan chiqib ketadi.

Yuqorida bot-bot ta'kidlaganimizdek, bolalarning barkamol, sog'lom, Vatan tuyg'usini his qila oladigan shaxs qilib ulg'aytirish, birinchi navbatda, oilaga va ota-onaga bog'liqdir. Masalan, oilalarda moddiy boylikning ko'payishi, undan ota-onalar va bolalarning noto'g'ri foydalanishi, o'smirlarning bir qismida hayotga iste'molchilik, boqimandalik nuqtai nazardan qarashni, tubanlikni, xudbinlikni keltirib chiqaradi, mehnatsiz boylik orttirish kayfiyati kuchayadi. Bu esa bir qator salbiy oqibatlariga olib kelishi, hatto jamiyat hayotini ham orqaga tortishi mumkin. Shuning uchun ham yosh avlodda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otish uchun ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy merosini chuqur o'rgatish, ularning iste'dodi va qobiliyatini buyuk maqsadlar sari yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo'yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo'lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta'minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta'minlash ko'rsatkichi shuncha yuqori bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda oilada bola tarbiyasining milliy o'ziga xos qoidalari mavjud bo'lib, ota-onalar ulardan o'rinli foydalanishlari lozim. Oilada ma'naviy-ruhiy hotirjamlik, o'zaro totuvlik xukmron bo'lsa, oila a'zolari birbirlariga g'amxo'r bo'lsalar, bola tarbiyasining tayanch nuqtasini topa olsalar, bunday muhit bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi va ular farzandlariga haqiqiy baxt hadya etadilar, bu bilan ishimizda rivojlanish, jamiyatimizda olg'a siljish bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida «Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang,

baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman», — deya ta'kidladi[1]. Hozirgi kunda Respublikamizda eng ko'p oilalar Farg'ona va Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi. Xalqimizning mehmondo'stligi, saxiy, ahil-inoqligi mamalakatimizdagi urf-odat va an'analarda yaqqol namuna bo'la oladi bunday go'zal udumlarimizni avloddan –avlodga boricha yetkazib berish bobo-buvilarimiz, ota-onamiz hamda bizning qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. T., “O'qituvchi”. 1994
2. Oila pedagogikasi. T., “Aloqachi”, 2007
3. M. Imamova. Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi — T. “O'qituvchi”. 1999
4. A. Fitrat. “Oila haqida”
5. V. Karimova. ”Oila psixologiyasi” ., ”Toshkent” ,2007
6. <https://www.gazeta.uz>
7. <https://lex.uz/docs/-104720?ONDATE=07.01.2020>